

G'ARB OLIMLARINING "SAHIHI BUXORIY"GA BO'LGAN MUNOSABATI

Ulfatillaeva S.S. –

Oriental universiteti katta o'qituvchisi, PhD.

Islom ilmining rivojida hadislar alohida o'rin egallaydi. Bu borada Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih" asari nafaqat musulmon olamida, balki jahon ilmiy hamjamiyatida ham eng ishonchli manbalardan biri sifatida e'tirof etilgan. Asarning yaratilishi, undagi hadislarining jamlanishi va tekshirilishidagi yuksak ilmiy mezonlar, Imom Buxoriyning betakror metodologiyasi uni boshqa hadis to'plamlaridan ajratib turadi. "Sahih Buxoriy" yaratilgan davrdan boshlab, musulmon ulamolari tomonidan chuqur o'rganilgan, unga sharhlar yozilgan, talqinlar yaratilgan va diniy-huquqiy masalalarda asosiy manba sifatida qo'llanilgan.

XX asrdan boshlab esa G'arb sharqshunoslari ham ushbu asarga alohida e'tibor qaratib, zamonaviy ilmiy metodlar asosida tahlillar o'tkaza boshladilar. Ignaz Goldzixer, Joseph Shacht, G.H.A. Juynboll, Patricia Crone va Jonathan Brown kabi olimlar hadislarining tarixiy ishonchliligi, isnod tizimi va rivoyatlarning shakllanish jarayoniga doir tadqiqotlar olib bordilar. Ularning qarashlari ba'zan musulmon an'anaviy ilmiy merosi bilan mos tushgan bo'lsa, ayrim hollarda tanqidiy tafakkur va alternativ ilmiy yondashuvlar bilan ajralib turadi. Aynan mana shu sababli "Sahih Buxoriy" nafaqat diniy ahamiyatga ega bo'lgan matn, balki global ilmiy munozaralar markaziga aylangan.

Mazkur maqolada asar yaratilishining tarixiy omillari, Imom Buxoriyning ilmiy usullari hamda G'arb olimlarining unga bildirgan fikr va mulohazalari keng yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi — an'anaviy islomiy ilmiy qarashlar bilan G'arb akademik maktabining yondashuvlarini solishtirish, ularning ilmiy asoslarini tahlil qilish va hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasini ko'rsatishdan iborat.

Imom Buxoriyning "Al-Jomi as-sahih" (Ishonarli to'plam) deb nomlangan 4 jild (juz) dan iborat hadislar to'plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadis to'plamlari orasida eng ishonarli va mukammalidir. To'plamda Muhammad payg'ambar hadislaridan tashqari, fiqh (islom huquqshunosligi), islom marosimchiligi, axloq-odob, ta'lim-tarbiya hamda o'sha davr tarixi va etnografiyasiga doir ma'lumotlar ham mavjud[1].

"Al-Jome' as-sahih" asarining yozilishi haqidagi ma'lumotlarga e'tibor qarasa, manbalarda bu asarning yozilishiga bir necha turtkilar sabab bo'lganligi keltirilgan. Firabriy bu haqda shunday degan: "Men Imom Buxoriyning kotibi Muhammad ibn Abu Hotamning: "Men tushimda Imom Buxoriyning ko'rdimki, ul kishi Payg'ambar alayhissalomning ortidan ergashib ketur erdi. Rasulluloh yurib borurdilar, har safar oyoqlarini ko'targanlarida Abu Abdulloh Buxoriy qadamini ayni o'shal joyga qo'yardi", deg'onlarini eshit'onmen"[2].

Yana bir manbada keltirilishicha: Al Hofiz ibn Hajar: Imom Buxoriyning mazkur kitobni yozishga bo'lgan azmu qarorlariga hadis va fiqh bobida mo'minlar amri bo'lmish ustozlari Is'hoq ibn Rohvayhning "Rasululloh sallallohu alayhi vassalamning muborak sunnatlaridan iborat bir muxtasar to'plam yarasangizlar edi!" degan so'zlari quvvat baxsh etdi, dedilar. Bu xususida Imom Buxoriyning o'zlari: "Ustozimning ana shu so'zlari qalbinga chuqur o'rnatilib qolib, "Al-jome' as-sahih"ni yozishga kirishdim", degan ekanlar. Ul kishi yana bunday deb aytgan ekanlar: "Men tushimda Rasululloh sallallohu alayhi vassalamni ko'rdim, ul zotning ro'paralarida turib, yelpig'ich bilan muborak yuzlaridan nimanidir haydayotgan emishman. So'ng men bir ta'burchidan so'rab edim, u: "Siz janob Rasulullohdan yolg'on haydaysiz", dedi. Ana shu tushim meni "Al-jome' as-sahih"ni yozmoqqa ilhomlantirdi"[3]

Imom Buxoriyning hadis to'plash, tasniflash va tekshirishdagi yuksak mezonlari hadis ilmi uchun namuna bo'lib qolgan. U hadislarini isnod (rivoyatchilar zanjiri) va matn (hadisning ma'nosi) jihatdan qattiq nazorat qilgan va faqat eng ishonchli hadislarini o'z to'plamiga kiritgan. Asarda hadis rivoyatchilarining hayoti, xulqi va ilmiy darajasi haqida ma'lumotlar berilgan. Bu ma'lumotlar hadis ilmi uchun juda muhim hisoblanadi.

“Sahihi Buxoriy”ga G‘arb olimlarining munosabatini o‘rganishdan oldin avvalambor Sharq allomalari munosabatini ko‘rib chiqish ahamiyatga molik.

“Sahihi Buxoriyga Ibn Battolning sharhi” – bu hijriy (444) yili vafot etgan Abu Hasan Ali ibn Xalaf Al-Molikiyning sharhidir. Ibn Battolning sharhi, hadislarning o‘ziga xos ma‘nolarini va ularning qoidalarini tushunishga yordam beradi. U hadislarni tushunishda chuqur tahlil va riyozatni ta‘minlaydi. Al-Molikiy bu sharhni hadislarni ta‘limot va tafsirda qanday qo‘llash kerakligi haqidagi qoidalarni kengaytirish uchun yozgan. Bu sharh ilmiy muloqot va diniy muhokamalar uchun muhim manba hisoblanadi.

Al-Kavokib Daroriyda “Sahih al-Buxoriy”ning sharhi: hijriy (786) yili vafot etgan Muhammad bin Yusuf Kirmoniyga tegishli. Ushbu sharh “Sahih al-Buxoriy”dagi hadislarni, ularning isnodlarini va matnlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Kirmoniy hadislar ta‘limini, ularning ma‘nolari, shuningdek, diniy va axloqiy qoidalarini izohlab berish bilan birga, o‘z fikrini ham kiritgan. Sharh nafaqat hadislarni tahlil qilish, balki ularni o‘rta asr sharoitidagi ijtimoiy va diniy hayotga qo‘llashga ham yordam beradi. Kirmoniy hadislarni zamonaviy ko‘z bilan tushunish va ularning ahamiyatini ko‘rsatishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

“Al-Tanqih li alfoz al-Jomi’ as-Sahih” asari hijriy (794) yili vafot etgan Badriddin Zarkoshiy tomonidan yozilgan. Ushbu asar “Sahih al-Buxoriy”da joylashgan hadislarning izohlarini, ularning so‘zlaridagi ma‘nolarini va kontekstlarini ochib berishga mo‘ljallangan. Shuningdek, Badriddin Zarkoshiy hadislarni to‘g‘ri talqin qilish uchun zarur bo‘lgan ilmiy asoslarni taqdim etadi. Asar ichida hadislarning ma‘nolaridan tortib, ularning ijtimoiy, diniy va axloqiy ahamiyatlari haqida batafsil izohlar keltirilgan.

Hijriy (852) yili vafot etgan Imom Ahmad bin Ali bin Muhammad, Ibn Hajar Asqaloni Shofe‘iyning “Sahih al-Buxoriyning izohi bilan Fath al-Boriy”[4] asari “Sahih al-Buxoriy”ning o‘ziga xos qoidalari, mazmuni va hadislarining ma‘nosini tushunishga yordam berish maqsadida yozilgan. Ibn Hajar hadislar va ularning tajribalarini yanada aniqlashtiradi. Ibn Hajar asarida hadislarning matnini va isnodini tahlil qilib, ularga shikoyat va shartlar bilan izoh beradi. Har bir hadis ta‘siri va konteksti haqida batafsil tushuntirishlar keltirilgan.

“Umdat al-qori sharhu Sahihi Buxoriy” asari hijriy (855) yili vafot etgan Badriddin Mahmud bin Ahmad Ayniy qalamiga mansub. Ayniy hadislarni izohlash, ularning mazmunini ochib berish va hadislarning ijtimoiy-siyosiy kontekstlarini taqdim etishga harakat qilgan. Asar ichida sanat (isnad) va matn tahlili mavjud. Ayniy hadislarni o‘rganish va ularni boshqalar bilan taqqoslash orqali hadisning ahamiyatini ko‘rsatadi.

“Irshod as-Sari li Sharh Sahih al-Buxoriy” – hijriy (922) yili vafot etgan shayx Shihobiddin Ahmad bin Muhammad Xatib Qastaloni sharhi”[5]. Ushbu sharhda Qastaloni, har bir hadisning kontekstiga va ularning o‘zaro munosabatlariga e‘tibor qaratadi. U hadislarning isnodlarini va matnlarini ehtiyotkorlik bilan tahlil qiladi, shuningdek, muhim fatvolar va diniy amaliyotlar haqida izohlar beradi.

Zamonaviy davr olimlari (Hijriy XIII-XV asrlar / Milodiy XIX-XXI asrlar):

Muhammad Abduh (Muxámmed Ábdo. hijriy 1323/milodiy 1905 y.) – misrlik islohotchi, mutafakkir va ulamo. Hadislarni aql va zamonaviy ilm bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilgan. Ba‘zi hadislarga tanqidiy yondashgan.

Muhammad Rashid Rizo (hijriy 1354/milodiy 1935 y.) – misrlik islohotchi va olim, Muhammad Abduhning shogirdi. “Tafsir al-Manar” asarida hadislarni sharhlashda Buxoriy hadislaridan keng foydalangan. Ba‘zi hadislarni tanqidiy o‘rgangan.

Muhammad al-G‘azzoli (hijriy 1416/milodiy 1996 y.) – misrlik mashhur olim, mutafakkir. “As-Sunna an-Nabaviyya bayna Ahl al-Fiqh wa Ahl al-Hadis” asarida Buxoriy hadislarini sharhlagan va ularning zamonaviy ahamiyatini ochib bergan.

Shayx Abdulaziz Mansur (O‘zbekiston) – o‘zbekistonlik taniqli hadisshunos olim. “Sahihi Buxoriy”ni o‘rganish va tarjima qilish borasida katta ishlarni amalga oshirgan. Uning hadis ilmi bo‘yicha darsliklari va asarlari o‘zbekistonlik talabalar uchun muhim manba hisoblanadi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (O‘zbekiston) – o‘zbekistonlik mashhur islomshunos olim va mutafakkir. “Hadis va Hayot” nomli asarida Buxoriy hadislarini sharhlagan va ularning hayotiy ahamiyatini ochib bergan.

Abdul-Fattah Abu Ghudda (Abd al-Fattah Abu Ghuddah, hijriy 1417/milodiy 1997 y., Suriya) – suriyalik taniqli hadis va fiqh olimi. Hadis rivoyat qilish uslubi va rivoyatning o‘ziga xos xususiyatlariga oid bir necha asar yozgan va “Sahihi Buxoriy”dagi hadislarga murojaat qilgan.

Ignaz Goldziher (Ígnas Goldsier, Vengriya) – islom hadislarini o‘rganishda katta rol o‘ynagan mashhur venger sharqshunosi. Goldziherning “Muhammadan Studies”[6] kitobi islom hadislariga oid klassik asar hisoblanadi. Ignaz Goldziher Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” asarini o‘rganishda nafaqat hadis matnlarining to‘g‘riligini, balki hadislarning tarixiy, diniy va ijtimoiy ahamiyatini o‘rganishga e‘tibor qaratgan. U hadislarning paydo bo‘lishi, isnod tizimi va matnining tahliliga tanqidiy yondashgan. Goldziherning ishlari hadis ilmini o‘rganishda yangi bir davrni boshlab bergan va uning tadqiqotlari bu sohada muhim ahamiyat kasb etadi. Goldziherning hadis ilmi sohasidagi qarashlari o‘z davrida ham, keyingi yillarda ham ko‘plab munozaralarga sabab bo‘lgan va hadis ilmi tadqiqotchilari tomonidan hozirgi kungacha bahsga sabab bo‘lib kelmoqda

Joseph Shacht (Yozef Shax, Germaniya)[7] – germaniyalik sharqshunos Joseph Shacht “Sahihi Buxoriy”ni asosan huquqiy jihatdan o‘rganib, undagi huquqiy hadislarning islom huquqining rivojlanishidagi rolini aniqlashga harakat qilgan. Shuningdek, u hadislarning tarixiy to‘g‘riligini tanqidiy nuqtayi nazardan o‘rganib, bu sohada o‘ziga xos yondashuvni ishlab chiqqan. Uning tadqiqotlari hadis ilmi va islom huquqi sohasida katta ta’sirga ega bo‘lgan, lekin ba’zi qarashlari boshqa islom olimlari tomonidan tanqid qilingan. Shachtning ishlari islomshunoslik sohasida, ayniqsa, islom huquqi va hadis ilmini o‘rganishda doimo munozarali mavzu bo‘lib kelgan.

G.H.A.Juynboll (Gualterus Xendrik Albert Djuynboll, Niderlandiya). Gollandiyalik sharqshunos G.H.A.Juynboll Imom Buxoriyning "Sahihi Buxoriy" asari va umuman hadis ilmini o‘rganishda hadislarning isnod tizimiga katta e‘tibor qaratgan. U hadislarning rivoyat zanjirini chuqur tahlil qilib, ularning ishonchliligi darajasini aniqlashga harakat qilgan. Uning tadqiqotlari hadis ilmini o‘rganishda muhim o‘rin egallaydi. Juynbollning yondashuvi hadis ilmi sohasida isnod tahlilining ahamiyatini yanada kuchaytirdi.

Patricia Crone (Patrúsiya Kroun, Daniya). Daniya-Amerika tarixchisi. Islomning ilk tarixi bo‘yicha radikal fikrli olim sifatida tanilgan Mashhur tarixchi olim Patricia Crone islom dinining paydo bo‘lishi va ilk davrlarini o‘rganishda katta hissa qo‘shgan. U o‘z tadqiqotlarida "Sahihi Buxoriy"dagi hadislardan ham foydalangan.. U hadislarni tarixiy jarayonlarni tiklashda ehtiyotkorlik bilan qo‘llash kerakligini aytadi. Crone ba’zi hadislarning siyosiy kuchlar tomonidan shakllangan bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, u Buxoriy hadislar tanlovining mukammalligini “o‘z davri uchun mislsiz ilmiy jarayon” deb e‘tirof etadi.

Jonathan Brown (Djonatan Endryu Klivlend Braun). amerikalik sharqshunos, islom hadislarini o‘rganishga ixtisoslashgan. "Hadith: Muhammad’s Legacy in the Medieval and Modern World"[8] asarida "Sahihi Buxoriy"ning o‘rni va rivoyat jarayonlarini tanqidiy tahlil qilgan. Bu asarlar hadislarini yanada chuqurroq tahlil qilish, tushunish va ularning ahamiyatini ko‘rsatishga bag‘ishlangan muhim asarlardir. Bu olimlar hadis ilmini tasnifi va tahlili bo‘yicha yirik olimlar sifatida tanilgan. Ushbu asarlar, diniy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borishda alohida ahamiyatga ega.

Mazkur olimlarning “Sahihi Buxoriy”ga bo‘lgan munosabati ikki tomonlama bo‘lgan. Bir tomondan, ular asarning hadis ilmidagi ulkan ahamiyatini, Imom Buxoriyning ilmiy mahoratini va hadislarni to‘plashdagi qat’iyatini e‘tirof etishgan. Ikkinchi tomondan, ular asarga tanqidiy yondashib, hadislarning ishonchliligi, tarixiy kelib chiqishi va matn tahlili bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirganlar. Yevropa va Osiyoning sharqshunos olimlar “Sahihi Buxoriy”ni o‘rganishda zamonaviy metodologiyalardan foydalanishgan. Germenevtika, semiotika, sotsiologiya, antropologiya va tarixiy tanqid kabi ilmiy yondashuvlarni qo‘llash orqali asarni yanada chuqurroq tahlil etishga harakat qilishgan. “Sahihi Buxoriy”ni tahlil qilishlari shuni ko‘rsatadiki, bu asar nafaqat islom

olamida, balki butun dunyo ilmiy doiralarida katta qiziqish uygʻotgan. Ular, asarning ilmiy va tarixiy qimmatini eʼtirof etgan holda, hadislarni tanqidiy oʻrganishga eʼtibor qaratganlar. Ularning tahlillari “Sahihi Buxoriy”ni yanada chuqurroq tushunishga va islom dinining ilk davrini oʻrganishga yordam beradi.

Shu bilan birga, Yevropadagi baʼzi olimlarning xulosalari, oʻzining shubha va tanqidlariga ega boʻlsa-da, islom olamidagi olimlar uchun muhim bir nuqtayi nazar va oʻrganish yoʻnalishlarini taqdim etdi. Bu esa, oʻz navbatida, islom olimlarining “Sahihi Buxoriy”ni oʻrganish uslublarining rivojlanishiga olib keldi.

Xulosa qilib aytganda Imom Buxoriy tomonidan yaratilgan “Al-Jome’ as-sahih” asari musulmonlar uchun eng ishonchli hadis manbalaridan biri boʻlib, asrlar davomida diniy, huquqiy va maʼnaviy hayotda beqiyos oʻrin tutib kelmoqda. Uning hadislarni toʻplash va tekshirishda qoʻllagan qatʼiy mezonlari bugungi kunda ham ilmiy metodologiya namunasiga aylangan. Gʻarb sharqshunolarining asarga bildirgan munosabati esa uning global ilmiy qadriga yana bir bor dalil boʻladi.

Ignaz Goldziher, Shacht, Juynboll, Crone va Brown kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar anʼanaviy hadis ilmini zamonaviy ilmiy tahlil bilan boyitdi. Ularning ayrim tanqidlari musulmon olimlari tomonidan rad etilgan boʻlsa-da, bu fikrlar hadislarni chuqurroq oʻrganish, isnod va matn tanqidini yanada rivojlantirishga turtki boʻldi. Natijada “Sahihi Buxoriy”ning ilmiy mavqei nafaqat saqlanib qoldi, balki uni turli ilmiy yondashuvlardan baholash imkoniyati kengaydi.

“Sahihi Buxoriy” bugungi kunda ham nafaqat diniy meros sifatida, balki global ilmiy izlanishlar mavzusi sifatida oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Gʻarb olimlarining tanqidiy yondashuvlari va musulmon ulamolarining anʼanaviy qarashlari oʻzaro qiyoslanganda, hadis ilmining koʻp qirrali, murakkab va tarixiy jihatdan boy ilmiy soha ekanligi yaqqol namoyon boʻladi. Bu esa ushbu sohani oʻrganishda yangi ilmiy imkoniyatlar va istiqbollarni yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Buyuk siymolar, allomalar: Oʻrta Osiyolik mashhur mutafakkirlar va donishmandlar. K.1. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1995. 100 b.
2. Shayx Abdussalom al-Mubarakfuriy Hazrat Imom al-Buxoriy. // Arab tilidan U.Uvatov tarjimai. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2015. B.118.
3. Imom al-Buxoriy – muhaddislar sultoni. // Nashrga tayyorlovchilar Usmonxon hoji Temirxon oʻgʻli va Baxtiyor Nabixon oʻgʻli – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 1998. B. 55-56.
4. Ibn Hojar Asqaloni. Fathul Boriy bisharhi Sahihul Buxoriy - Qohira, 1988.
5. Bilol Mustafo Elvon. ھجري 1431/5/20 - ميلادي 2010/5/4. الصحيح. بلال مصطفى علوان تعريف بكتاب الجامع الصحيح. <https://www.alukah.net/sharia>.
6. Ignaz Goldziher, *The Zahiris: Their Doctrine and their History*, trans and ed. Wolfgang Behn (Leiden, 1971), 20 ff..)
7. Joseph Schacht, *The Origins of Muhammadan Jurisprudence* (Oxford, 1950, repre. 1964) esp. 6-20 and 133-137.
8. Brown, Jonathan (2007). «Three: The Genesis of al-Bukhārī and Muslim». *The Canonization of al-Bukhari and Muslim: The Formation and Function of the Sunni Hadith Canon*. Koninklijke Brill NV, Leiden, The Netherlands: Brill. p. 77

REZYUME:

Ushbu maqolada Imom Buxoriyning “Al-Jome’ as-sahih” asari va uning islom ilmidagi oʻrni haqida soʻz yuritiladi. Asarning yaratilishiga sabab boʻlgan tarixiy omillar, Imom Buxoriyning hadis toʻplash va tekshirishdagi ilmiy mezonlari ham batafsil yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Sahihi Buxoriy, Imom Buxoriy, hadis ilmi, isnod, matn tanqidi, Gʻarb olimlari, Ignaz Goldziher, Joseph Schacht, Juynboll, Patricia Crone.

РЕЗИОМЕ:

В данной статье рассматривается значение труда Имама аль-Бухари “Аль-Джами ас-сахих” и его место в исламской науке. Описаны исторические причины создания сборника, а также строгие научные критерии, которыми пользовался Имам Бухари при сборе и проверке хадисов.

Ключевые слова: Сахих аль-Бухари, Имам аль-Бухари, наука хадисов, иснад, текстуальная критика, западные ученые, Игнац Гольдциер, Ёзеф Шахт, Юйнболл, Патрисия Кроун.

RESUME:

This article explores the significance of Imam al-Bukhari's "Al-Jami' as-Sahih" and its central role in Islamic scholarship. It highlights the historical motivations behind the compilation of the work and the rigorous methodology Imam al-Bukhari employed in collecting and verifying hadiths.

Keywords: Sahih al-Bukhari, Imam al-Bukhari, hadith studies, isnad, textual criticism, Western scholars, Ignaz Goldziher, Joseph Schacht, Juynboll, Patricia Crone.